XALQ DEPUTATLARI YANGIHAYOT TUMAN KENGASHINING
Q A R O R I

2023 - yil 29 - dekabr I-68-203-14-220-K/23 Yangihayot tuman xokimligi

2024-yil uchun Yangihayot tumanining mahalliy budjetini tasdiqlash to‘g‘risida

O‘zbekiston Respublikasi “Mahalliy davlat hokimiyati to‘g‘risida”gi Qonunining 6, 24-moddalari va Budjet kodeksining 99-moddasiga muvofiq, O‘zbekiston Respublikasining 2023-yil 25-dekabrdagi “2024-yil uchun O‘zbekiston Respublikasining Davlat budjeti to‘g‘risida”gi O‘RQ-886-sonli Qonuni hamda xalq deputatlari Toshkent shahar Kengashining 2023-yil 28-dekabrdagi “2024-yil uchun Toshkent shahar mahalliy byudjetini tasdiqlash to‘g‘risida”gi VI-95-278-14-0-K/23-sonli qarori va Toshkent shahar Iqtisodiyot va moliya bosh boshqarmasining 2023-yil 26-dekabrdagi 01-3/2695-sonli xatini inobatga olib, xalq deputatlari Yangihayot tuman Kengashi,

QAROR QILADI:

1. O‘zbekiston Respublikasining “2024-yil uchun O‘zbekiston Respublikasining Davlat budjeti to‘g‘risida” 2023-yil 25-dekabrdagi O‘RQ-886-sonli Qonuni (keyingi o‘rinlarda Qonun deb ataladi) va xalq deputatlari Toshkent shahar Kengashining “2024-yil uchun Toshkent shahar mahalliy byudjetini tasdiqlash to‘g‘risida” 2023-yil 28-dekabrdagi VI-95-278-14-0-K/23-son Qarori (keyingi o‘rinlarda Qaror deb ataladi) qabul qilinganligi;

Qarorning 5-ilovasiga muvofiq, Yangihayot tuman mahalliy budjetining 2024-yil uchun daromadlari 79 598 000,0 ming so‘m va xarajatlari 79 598 000,0 ming so‘m miqdorida balanslashgan holda belgilanganligi ma‘lumot uchun qabul qilinsin.

2. 2024-yil uchun Yangihayot tumani mahalliy budjetining daromadlari prognozi 1-ilovaga muvofiq qabul qilinsin.

3. 2024-yil uchun Yangihayot tumani mahalliy budjetidan hududiy budjet mablag‘larini taqsimlovchilarga ajratiladigan mablag‘larning cheklangan miqdorlari 2-ilovaga muvofiq;

2024-yil uchun umumdavlat soliqlaridan ajratmalar me’yorlari 3-ilovaga muvofiq tasdiqlansin.

Bunda, ajratmalar me’yorlari bo‘yicha Toshkent shahar mahalliy budjeti bilan tumanlar mahalliy budjetining taqsimotini o‘rnatilgan tartibda Toshkent shahar bo‘yicha G‘aznachilik xizmati boshqarmasi tomonidan amalga oshirilishi belgilab qo‘yilganligi ma‘lumot uchun qabul qilinsin.

4. 2024-yil uchun Yangihayot tumani mahalliy budjetining zaxira jamg‘armasi hajmi 678 364,0 ming so‘m miqdorida;

2024-yil uchun Yangihayot tumani mahalliy budjeti shaxsiy g‘azna hisob varaqlarida turgan budjet mablag‘larining yo‘l qo‘yiladigan eng kam miqdori 313 000,0 ming so‘m etib belgilansin.

5. Qonun bilan 2024-yilda xalq deputatlari Kengashlarini mahalliy budjetlarni boshqarishda, xususan, mahalliy budjet xarajatlarini hududiy budjet mablag‘lari taqsimlovchilar kesimida tasdiqlash va ularning Kengash oldidagi hisobdorligini belgilash bo‘yicha vakolatlari kengaytirilganligi inobatga olinsin.

Shuningdek, 2024-yilda quyidagi soliq turlari:

a) tuman mahalliy budjetiga to‘liq hajmda o‘tkaziladi:

jismoniy shaxslardan olinadigan mol-mulk solig‘i;

jismoniy shaxslardan olinadigan yer solig‘i;

jismoniy shaxslarga tegishli mol-mulkni ijaraga berishdan oladigan yillik daromadi to‘g‘risidagi deklaratsiyaga asosan to‘laydigan, shuningdek, yakka tartibdagi tadbirkorlar to‘laydigan jismoniy shaxslardan olinadigan daromad solig‘i;

suv resurslaridan foydalanganlik uchun soliq, bundan elektr stansiyalari tomonidan to‘lanadigan soliq mustasno;

ijaradan tushadigan tushumlar.

b) Quyidagi soliq turlari va boshqa majburiy to‘lovlar Toshkent shahar mahalliy budjeti hamda tumanlar mahalliy budjetlari o‘rtasida taqsimlanadi:

aylanmadan olinadigan soliq;

benzinni, dizel yoqilg‘isi va gazni yakuniy iste’molchilarga realizatsiya qilishdagi aksiz solig‘i;

yuridik shaxslarning mol-mulkiga solinadigan soliq;

yuridik shaxslardan olinadigan yer solig‘i.

6. Quyidagilar Toshkent shahrining shahar budjetidan hamda Yangihayot tuman mahalliy budjetidan moliyalashtiriladi:

Soliq qo‘mitasining Yangihayot tuman soliq inspeksiyasining saqlash xarajatlari;

Davlat kadastrlari palatasi Toshkent shahar boshqarmasi Yangihayot tuman filialining saqlash xarajatlari;

O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining Toshkent shahar Yangihayot tumanidagi Xalq qabulxonasini saqlash xarajatlari;

sud boshqaruvchilarining mehnatiga haq to‘lash bilan bog‘liq xarajatlari moliyalashtirilishi ma’lumot uchun qabul qilinsin.

7. Yangihayot tumani hokimining birinchi o‘rinbosari (X.Tashpulatov), tuman Iqtisodiyot va moliya bo‘limi (A.Maxmudov), tuman soliq inspeksiyasi (J.Ergashov) va mas’ul bo‘lim va tashkilotlar bilan birgalikda:

tegishli budjetlarni birinchi navbatda ish haqi va unga tenglashtirilgan to‘lovlar, oziq-ovqat va dori-darmon va kommunal xizmatlar xarajatlarining rejalashtirilishini nazarda tutgan holda shakllantirish;

mahalliy budjet prognoz ko‘rsatkichlarini o‘z vaqtida va samarali bajarish;

budjet mablag‘laridan maqsadli va samarali foydalanish;

budjet intizomiga rioya etilishi ustidan nazorat va mas’uliyatni yanada kuchaytirish;

tegishli mahalliy budjetlarga soliqlar va boshqa majburiy to‘lovlarning to‘liq tushumini ta’minlash;

budjet daromadlar bazasini oshirish va qo‘shimcha rezervlarni aniqlash zarurligiga alohida e’tibor qaratsin.

8. Yangihayot tuman soliq inspeksiyasi (J.Ergashov), O‘zbekiston Respublikasi Soliq kodeksida belgilangan normalaridan kelib chiqib:

soliqlarning to‘liq va to‘g‘ri hisoblanishini hamda ushbu soliqlarni o‘z vaqtida budjetga undirilishi ustidan soliq nazoratini kuchaytirish;

yer solig‘i, suv resurslaridan foydalanganlik uchun soliq va mol-mulk soliqlari bo‘yicha doimiy tahlillar o‘tkazgan holda, soliqlarni to‘liq hisoblanishini ta’minlash

hamda ushbu soliq to‘lovlari bo‘yicha soliq qarzdorligiga yo‘l qo‘ymaslik choralarini ko‘rish;

aylanmadan olinadigan soliq turi bo‘yicha soliq to‘lovchilar tomonidan naqd pul aylanmalarining soliq hisobotlarida to‘liq aks ettirilishi ustidan doimiy soliq nazoratini o‘rnatish hamda zarur hollarda xronometraj va kameral soliq nazorati tadbirlarini o‘tkazish;

bunda, mazkur yo‘nalishda jamoatchilik nazoratini kuchaytirish maqsadida fuqorolarga xarid chekini talab qilib olishni targ‘ib etuvchi ijtimoiy roliklar hamda video materiallar tayyorlab, ijtimoiy tarmoqlar va ommaviy axborot vositalarida keng targ‘ibot-tashviqot ishlarini olib borishga alohida e’tibor qaratish;

xatlov ishlarini samarali tashkil etish orqali yer va mol-mulk solig‘ining soliq bazasini oshirish;

Davlat kadastrlari palatasi Toshkent shahar boshqarmasi Yangihayot tuman filiali bilan birgalikda, tumanda mavjud soliq to‘lovchilarning mol-mulklari maydonlarini chuqur tahlil etgan holda ushbu mol-mulklarga nisbatan soliqlarni to‘liq hisoblanishi ta’minlansin.

9. O‘zbekiston Respublikasi Bosh prokuraturasi huzuridagi Majburiy ijro byurosi Toshkent shahar Yangihayot tumani bo‘limi (A.Umarov), Yangihayot tuman soliq inspeksiyasi (J.Ergashov) bilan hamkorlikda soliqlar va boshqa majburiy to‘lovlar bo‘yicha mavjud soliq qarzdorliklarini budjetga undirish yuzasidan tegishli choralar ko‘rib borsin hamda choraklar yakuni bilan soliq qarzdorliklarining chorak boshiga nisbatan kamayib borishi bo‘yicha barcha kompleks chora-tadbirlar ko‘rib borishni ta’minlasin.

10. Xalq deputatlari Yangihayot tuman Kengashining Mahalliy budjet, iqtisodiy islohotlarni amalga oshirish, investitsiyalar va tadbirkorlikni rivojlantirish masalalari bo‘yicha doimiy komissiyasiga:

mahalliy budjetning qo‘shimcha manbalaridan foydalanish to‘g‘risidagi hokimlik tomonidan taqdim etiladigan takliflarini belgilangan muddatlarda jamoatchilik muhokamasidan o‘tkazish;

Kengash qarori asosida mahalliy budjetning qo‘shimcha manbalari hisobidan ajratilgan mablag‘larni samarali va maqsadli foydalanishi ustidan nazorat o‘rnatish, tavsiyalar berish va monitoring qilish;

mahalliy budjet xarajatlarining qonunchilikda belgilangan qismining jamoatchilik fikri asosida shakllantirilgan tadbirlarni moliyalashtirishga

yo‘naltirilishida ishtirok etish va ushbu mablag‘larning maqsadli sarflanishi ustidan nazoratni amalga oshirish vazifasi topshirilsin.

11. Quyidagilar:

tuman mahalliy budjeti jami xarajatlarining 5 foizi hamda shakllangan qo‘shimcha mablag‘larining kamida 30 foizini jamoatchilik fikri asosida shakllantiriladigan tadbirlarni moliyalashtirish uchun “Fuqarolar tashabbusi jamg‘armasi”ga yo‘naltirish;

bunda, xalq deputatlari tuman Kengashi, yoshlar ishlari agentligi hamda yangi joriy etilgan hokim yordamchilari budjet jarayonida fuqarolarning faol ishtirokini ta’minlash maqsadida aholiga keng targ‘ibot-tashviqot ishlarini olib borishni tavsiya etish;

tuman mahalliy budjetining qo‘shimcha manbalari hisobidan xarid qilingan tovarlar va xizmatlar, qurilish, rekonstruksiya qilish va ta’mirlash ishlari olib borilayotgan ob’ektlar ro‘yxati, shuningdek, qurilish-ta’mirlash ishlarining moliyalashtirilishi to‘g‘risidagi ma’lumotlar har chorak yakunlariga ko‘ra, keyingi chorak birinchi oyining 10-sanasiga qadar majburiy tartibda hokimlik rasmiy veb-saytiga joylashtirib borish topshirilsin.

12. Yangihayot tumani hokimining birinchi o‘rinbosari, tuman soliq inspeksiyasi, tuman iqtisodiy taraqqiyot va kambag‘allikni qisqartirish bo‘limi, tuman iqtisodiyot va moliya bo‘limi va tegishli bo‘limlar bilan birgalikda:

mahalliy budjet daromad va xarajatlarining prognoz ko‘rsatkichlari bajarilishi hamda soliq bazasini kengaytirish yuzasidan ko‘rilgan chora-tadbirlar;

ajratilgan budjet mablag‘laridan maqsadli va samarali foydalanishi yuzasidan erishilgan natijalar bo‘yicha xalq deputatlari Yangihayot tuman Kengashiga har chorakda kamida bir marotaba hisobot kiritib borsin.

13. Yangihayot tuman hokimligi matbuot xizmati mazkur qarorni rasmiy e’lon qilinishini va www.yangihayottumani.uz rasmiy veb-saytiga joylashtirilishini ta’minlasin.

14. Xalq deputatlari Yangihayot tuman Kengashining 2023-yil 5-yanvardagi “Yangihayot tumanining 2023-yil uchun mahalliy budjetini tasdiqlash to‘g‘risida”gi I-49-1-14-220-K/23-sonli qarori o‘z kuchini yo‘qotgan deb hisoblansin.

15. Ushbu qaror 2024-yil 1-yanvardan e’tiboran kuchga kiradi.

16. Mazkur qarorning bajarilishini nazorat qilish xalq deputatlari Yangihayot

tuman Kengashining Mahalliy budjet, iqtisodiy islohotlarni amalga oshirish, investitsiyalar va tadbirkorlikni rivojlantirish masalalari bo‘yicha doimiy komissiyasi (B.Raximov) va Yangihayot tuman hokimining birinchi o‘rinbosari (X.Tashpulatov) zimmasiga yuklansin.

Xalq deputatlari Yangihayot tuman Kengashi raisi **X.Inogamov**

Xalq deputatlari Yangihayot tuman
Kengashining
2023-yil 29-dekabrdagi
I-68-203-14-220-K/23-son qaroriga
1-ilova

2024-yil uchun Yangihayot tumani mahalliy budjetining daromadlari prognozi

ming so‘mda

№	Ko‘rsatkichlar	Miqdori
Daromadlar		**79 598 000,0**
1.	Jismoniy shaxslardan olinadigan yer solig‘i	10 155 000,0
2.	Jismoniy shaxslar mol-mulkiga solinadigan soliq	21 472 000,0
3.	Jismoniy shaxslarga tegishli mol-mulkni ijaraga berishdan oladigan yillik daromadi to‘g‘risidagi deklaratsiyaga asosan to‘laydigan, shuningdek, yakka tartibdagi tadbirkorlar to‘laydigan jismoniy shaxslardan olinadigan daromad solig‘i	2 300 000,0
4.	Yuridik shahslardan olinadigan yer solig‘i	11 074 000,0
5.	Yuridik shaxslar mol-mulkiga solinadigan soliq	10 012 000,0
6.	Aylanmadan olinadigan soliq	3 764 000,0
7.	Suv resurslaridan foydalanganlik uchun soliq	3 988 000,0
8.	Yakuniy iste’molchilarga benzin, dizel yoqilg‘isi va gaz realizatsiya qilishdagi aksiz solig‘i	16 631 000,0
9.	Ijara to‘lovlari	202 000,0

Xalq deputatlari Yangihayot tuman
Kengashining
2023-yil 29-dekabrdagi
I-68-203-14-220-K/23-son qaroriga
2-ilova

2024-yil uchun Yangihayot tumani mahalliy budjetidan hududiy budjet mablag‘larini taqsimlovchilarga ajratiladigan mablag‘larning cheklangan miqdorlari

ming so‘mda

№	Ko‘rsatkichlar	Miqdori
Xarajatlar jami		**79 598 000,0**
	shu jumladan:	
1.	Maktabgacha va maktab ta’limi sohasi	25 072 309,0
2.	Sog‘liqni saqlash sohasi	2 001 943,0
3.	Madaniyat va sport, ommaviy axborot vositalari:	4 961 720,0
	- madaniyat va ommaviy axborot vositalari	937 016,0
	- sport	4 024 704,0
4.	Ozodlikdan mahrum etish jazosini o‘tabbo‘lgan fuqarolarga "dastlabki ijtimoiy-moddiyyordam paketi"	114 353,0
5.	Ijtimoiy ko‘nikma markazlari	165 716,0
6.	Ichki xo‘jalik avtomobil yo‘llarini ta’mirlash xarajatlari	1 325 000,0
7.	Obodonlashtirish sohasi	12 913 624,0
8.	Davlat boshqaruv organlarini saqlash	18 594 258,0
9.	"Mahalla budjeti" jamg‘armasi mablag‘lari	2 920 713,0
10.	Fuqarolar tashabbusi jamg‘armasi	10 850 000,0
11.	Zaxira jamg‘armasi	678 364,0

Xalq deputatlari Yangihayot tuman
Kengashining
2023-yil 29-dekabrdagi
I-68-203-14-220-K/23-son qaroriga
3-ilova

2024-yil uchun umumdavlat soliqlaridan ajratmalar me’yorlari

№	Tuman nomi	Aylanmadan olinadigan soliq	Yakuniy iste’molchilarga benzin, dizel yoqilg‘isi va gaz realizatsiya qilishdagi aksizsolig‘i	Yuridik shaxslardan olinadigan yer solig‘i	Yurid ikshaxslar mol-mulkiga solinadigan soliq	Suv resurslaridan foydalanganlik uchun soliq
1	Yangihayot	18	34	20	15	100